

## XX ASR BOSHLARI TATAR ADABIYOTI TARIXIGA DOIR ILK QARASHLAR

Nodira Egamqulova

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD.

[nodiraegamkulova1@gmail.com](mailto:nodiraegamkulova1@gmail.com)ORCID <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0002-9647-4085><https://doi.org/10.5281/zenodo.20593775>

**Annotatsiya.** *Jadidchilik harakati Idil-Ural tatarlari orasida Turkiston jadidligiga nisbatan erta kurtak yozdi. Bu hududlarda milliy matbuot, milliy ta'lim, milliy adabiyot, teatrni yo'lga qo'yishda G'arb va Sharq an'analari sintezlashdi. Tatar oydinlari yangi usul maktablari uchun turli dastur hamda darsliklar hozirlashga kirishar ekanlar, bu jarayon bevosita o'lka milliy tarixi, jug'rofiyasi, madaniyati, adabiyotshunosligi yaratilishining ham debochasi bo'ldi.*

*Milliy adabiyot tarixi, nazariyasi, adabiy tanqidni shakllantirishga bo'lgan urinishlar avvalo milliy matbuotda boshlandi, keyinchalik o'rta va yuqori sinflar uchun yozilgan adabiyot darsliklarida asosiy bosqichga ko'tarildi. Ushbu maqolada tatar adabiyoti tarixiga doir ilk tadqiqot mualliflari Ali Rahim hamda Aziz Ubaydullinning "Tatar adabiyoti tarixi" kitobi va uning turkiy xalqlar adabiyoti tarixidagi o'rni haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Idil-Ural tatarlari, tatar adabiyoti, jadidchilik, adabiyot tarixi, adabiyot darsliklari, Ali Rahim, Aziz Ubaydullin*

**Annotation.** *The Jadidism movement emerged among the Idil-Ural Tatars earlier than it did in Turkestan. In these regions, the synthesis of Western and Eastern traditions played a key role in establishing the national press, national education, national literature, and theater. As Tatar intellectuals began preparing various curricula and textbooks for new-method schools (usul-i jadid), this process also served as the prologue to creating the region's national history, geography, culture, and literary studies. Attempts to shape the history, theory, and criticism of national literature first began in the national press and later reached a major milestone in literature textbooks written for middle and high school students. This article discusses the book "History of Tatar Literature" by Ali Rahim and Aziz Ubaydullin the authors of the first research on the history of Tatar literature and its place in the history of the literature of Turkic peoples.*

**Keywords:** *Idil-Ural Tatars, Tatar literature, Jadidism, history of literature, literature textbooks, Ali Rahim, Aziz Ubaydullin.*

Ali Rahim va Aziz Ubaydullin qalamiga mansub "Tatar adabiyoti tarixi" kitobi uch qismdan iborat bo'lib, birinchi "Tatar adabiyoti tarixi uchun materiallar yig'uv yo'lida bir tajriba. Madxal" qismida tatar adabiyotining rivojlanishi va kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, jumladan, umumturkiy va islomiy adabiy an'alar yoritilgan. Tatar adabiyoti tarixini uyg'ur va arab yozuvidagi manbalar, so'fiylik ta'siri ostida vujudga kelgan asarlar tashkil etadi.

Tatar adabiyoti tarixi bu birgina tatar xalqi og'zaki va yozma ijodiga mansub emas. Shu boisdan mualliflar ham umumturkiy tushunchasiga alohida urg'u berishmoqda. Shuningdek, tatar adabiyoti tarixini o'rganishda bevosita chig'atoy, saljuq va usmonli adabiyoti bilan aloqalarini hisobga olish kerak. Ushbu kitobning asosiy g'oyasi tatar adabiyoti tarixini keng umumturkiy madaniyat doirasida o'rganish zaruratidir. Ikkinchi qismda to'g'ridan to'g'ri tatar adabiyotining ta'siri bo'lmagan, ammo tatar adabiyotining shakllanishida muhim rol o'ynagan, Idil bo'yida yashovchi turkiy xalqlar orasida o'qilgan, saqlanib qolgan, tatar xalqining adabiy mulkiga aylanib ketgan usmonli va chig'atoy adabiyotiga tegishli asarlar keltirilgan.

Kitobning eng muhim uchinchi qismida XVII-XIX asrlar Idil bo'yi tatarlarining o'z yozuvchilari tarafidan yozilgan asarlar o'rin olgan [5:123]. Ushbu kitoblar "Tavorixi Bulg'oriya", "Jome' at tavorix", tarjimasi, "Alikay otaliq vasiyatnomasi", "Ahvoli Chingizxon va oqsoq Temur", voqeanomalar, Ismoil ota sayohatnomasi, "Badavam kitobi", yogalik, folnoma, yulduznoma va tush ta'birlari, "Imon sharti", "Risolayi Aziza", "Fazoilush shohir", hikoyat kitoblari, "Tohir ila Zuhra", "Bo'z yigit", "Qissayi Navruz" kitoblari kiradi. Mana shunday asarlarning eng birinchisi deya Xisomiddin bin Sharofiddin al-Muslimiy qalamiga mansub "Tavarixi Bulg'oriya"<sup>1</sup> ("Risolayi tavorixi Bulg'oriya va zikri mavlono hazrati Oqsoq Temur va xaroba shahri Bulg'or") kitobi e'tirof etiladi.

Olimjon Ibrohimov va Abdurahmon Sa'diy ushbu asarga ijobiy baho berish bilan birga, mualliflarni marksizm-leninizm usulini qo'llamaganlikda ayblaydi. Tatar adabiyoti tarixini Volga bo'yi bilan bog'lashga chaqiradi. Validiyning fikriga ko'ra, Ali Rahim va Aziz Ubaydullinning ishlari nafaqat tatar, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotini o'rganish uchun muhim manba va namuna bo'la oladi [3:4-5]. Asarning ahamiyatini anglash uchun, eng avvalo, o'sha davrda tatar adabiyoti tarixining fan sifatida ishlab chiqilmaganligini, uning qanday konseptual asosga qurilishi aniqlanmaganligini, qaysi davrlardan boshlanishi kerakligi tasdiqlanmaganligini aytish kerak. Bu yo'nalishda mualliflarning tatar adabiyoti tarixini umumturkiy madaniyat doirasida uzluksiz jarayon sifatida tuza olgani juda katta yutuq bo'ldi.

Mualliflar tatar adabiyoti tarixini alohida hodisa sifatida emas, balki umumturkiy madaniyat hodisasining bir uzvi sifatida o'rganishga chaqiradi. Ya'ni ular bu bilan tatar adabiyoti tarixini yakka holda emas, balki katta sivilizatsion makonning bir qismi sifatida ko'rish muhimligini ta'kidlamoqchi bo'ladi [4:10-11]. Asarning asosiy katta xulosalaridan biri shuki, tatar adabiyoti tarixini to'g'ri anglash uchun uni konseptual asosga solish, ya'ni uning umumturkiy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini tan olish zarur. Bugun ham zamonaviy tatar adabiyotshunosligi, tatar tili va adabiyotini o'rganish ishlarida Ali Rahim va Aziz Ubaydullin belgilab berganidek, turkiy-tatar adabiyoti rivojlanish davri O'rxun-Enasoy yozuvlaridan boshlab o'rganiladi.

Ushbu kitobni o'qish davomida mualliflarning Mo'g'uliston, Xitoy, Oltoy, O'rta Osiyo, Yevropa tarixi, din tarixi, turkiy madaniyat tarixiga doir bilimlari keng ekanligiga guvoh bo'lasiz. Xitoy manbalari, Yevropa sayohatnomalari. Radlov, Bartold, Samoylovich, Tomson, Malov, Korsh kabi rus va g'arb olimlarining qarashlari, shuningdek, Marjoniy, R.Faxriddinov, Z Validiy kabi sharq musulmon olimlarining asarlariga murojaat qilgan, ularning qarashlarini tahlil qilgan, munosabat bildirgan. Bu esa ushbu kitobning ilmiy asosga egaligi, faktik materialga boyligini, qamrovining kengligini ko'rsatadi. Shu boisdan kitobning kirish qismida "...bu kitob Volga bo'yida turkiy tilda yozilgan va o'qilgan asarlarga bir tomonlama qaramaydi, ularning zamoniga, madaniy muhitiga, zamondoshlarining fikr-qarashlariga, shuningdek, tillariga, uslublariga, nihoyat, adabiy qiymatlariga qarab tekshiradir. Xulosa qilib aytganda, bu asar bir adabiyot tarixi bo'lishdan tashqari, Volga bo'yi tatarlarining madaniyat tarixlarining katta bir qismini o'z ichiga oladi"[4:12].

Demak, tatar adabiyoti tarixiga Idil (Volga) bo'yida tug'ilgan asarlarni ham, umumturkiy adabiy meros bo'lib qolgan javohirlarni ham, Movarounnahrda, O'rta Osiyoda, Oltoyda yoki

<sup>1</sup> Tatarcha nomi: «Тәварихе Болгария» («Рисаләи Тәварихе Болгария вә зикре мәүланә хәзрәте Аксак Тимер вә хәрәбә шәһре Болгар»). Matnda keltirilgan Болгария (Bulg'oriya) Bolqon yarim orolidagi Bolgariya davlatini emas, VII-XIII asrlarda O'rta Volga va Kama bo'ylarida mavjud bo'lgan turkiy davlat - Volga bo'yi Bulg'oriyasini anglatadi - N.E.

Eron-Turkiya yerlarida yozilib, qardosh xalqlar bilan muloqot natijasida tatarlarga yetib kelgan, shuningdek chig'atoy yoki uyg'ur, usmonli adabiyotining tatarlar tomonidan qabul qilib olingan merosini ham kiritish mana shu tarzda tushuntiriladi va dalillanadi. Shuningdek, A. Ubaydullin va A. Rahim birinchilardan bo'lib milliy adabiyotning chuqur ildizlariga e'tibor qaratadilar.

Adabiyot tarixida umumturkiy adabiyot va Idil bo'yi adabiyoti kabi davrlarni ajratishdi. Mazkur ish adabiyot tarixiga xronologik yondashishni markazga qo'yadi. Mualliflarning fikricha, Qadimgi va O'rta asrlar adabiyoti deb atalgan davr XIX asr oxirigacha davom etadi.

Tatar adabiyotidagi Yangi zamon esa XVIII asr oxiridan, Xalfinlar, Fayzxonovlar, Marjoniylar, Q. Nosiriy, Oqmullalar ijodidan boshlanadi. Shunday qilib, bir davrdan ikkinchisiga o'tish orasida bir asrlik o'tish davri paydo bo'ladi. Afsuski, ularda so'nggi choraklarga bo'lish masalasida ko'plab chalkashliklar uchraydi. Mualliflar fikriga qaraydigan bo'lsak, Qadimgi va O'rta asrlar tatar adabiyoti XIX asr oxiriga qadar davom etgan, Yangi davr adabiyotining boshlanishi esa XVIII asrning oxiridan XIX asr so'nggi choragiga qadar davom etgan. Ya'ni bir davrdan ikkinchi davrga o'tish bir asrni qamrab olyapti.

Mualliflar ushbu ishlari bilan o'zlariga qadar qo'l tegmagan, ishlanmagan bir ilm [4:20] bo'lgan tatar adabiyoti tarixini fan sifatida shakllantirish, uni tizimga solishni maqsad qilishgan.

Bu holat XX asr boshlarida ko'plab turkiy xalqlar adabiyotshunosligiga xos bo'lgan.

Demak, bu kitob tatar adabiyoti tarixini birinchi marta tizimli fan sifatida shakllantirish va o'rganishga urinish bo'lgan. Tatar adabiyoti tarixini bir tizimga keltirishning uch asosda bo'lishi mumkinligi ta'kidlanib, bular shaxs, tip, zamon nuqtayi nazaridan tizimga solishdir.

Ya'ni mualliflar adabiyot tarixini o'rganishda 3 ta asosiy metodologik yondashuvni ko'rsatib o'tadi:

1. Biografik metod.
2. Tipologik metod
3. Xronologik metod

Mualliflar fikricha, biografik yondashuv u qadar o'zini oqlamaydi. Buning bir qancha sabablarini keltirishadi. Avvalo, shaxslar o'z muhiti, zamonining "qo'l"i, nima yozsalar ham o'z muhitidan, davridan chetga chiqib keta olmaydilar. Shu bois "shaxs orqali davrni emas, balki davr orqali shaxslarni ochib berish" [4:21]ni to'g'ri yo'l deb hisoblashadi. Bu esa mualliflarning adabiyot tarixini yaratishda shaxslarning tarjimayi holidan ko'ra davrning ijtimoiy fikr, g'oyalarini birinchi planga qo'yishlarini ko'rsatadi. Bu yondashuv ijtimoiy-tarixiy tahlil metodiga yaqindir. Ehtimol bunday fikrga kelishlarida o'sha davrdagi marksistik adabiyotshunoslikning (mafkuraning) ta'siri bo'lishi mumkin. Ularning birinchi tur yondashuvni tanlay olmasliklarining yana bir sababi qilib esa Idil bo'yi tatarlari orasida adabiyot bobida buyuk shaxslarning yetishib chiqmaganligi yoki olim, yozuvchi, muarrixlar ma'lum bo'lsa-da, buni tasdiqlovchi tarixiy manbalarining yetishmasligi, borlari ham rus manbalaridan iboratligi, o'z asarlarining yetib kelmaganligi ko'rsatiladi. Bu holatni Qosim, Hojitarxon, Qozon tatarlari madaniy hayotiga ham nisbat berish mumkin.

Mualliflar tatar adabiyoti tarixini tizimlashtirishda tipologik yondashuv ham o'zini oqlamasligini qayd etishadi [4:22]. Tatar adabiyoti tarixiga doir materiallar tekshirilib, fan sifatida manbalarni to'plash bosqichidan o'tmaganligini buning asosiy sababi qilib ko'rsatiladi.

Tatar adabiyoti tarixini xronologik tartibda tizimlashtirishni mualliflar nisbatan eng oson va qulay yo'l deb topishdi. Mazkur kitob doirasida tahlilga tortilgan adabiy manbalar yozilgan yili tartibi bo'yicha joylashtirib chiqilgan.

Ish jarayonida shunga guvoh bo‘lindiki, ushbu yo‘l ham mukammal bo‘lib chiqmadi: *“Chunki qadimgi davrlardan qolgan juda ko‘p asarlarning yozilish sanalari aniq ma‘lum emas; ularni taxminan ma‘lum bir o‘ringa qo‘yish mumkin, xolos.*

*Undan tashqari, soni ancha ko‘p bo‘lgan bir guruh asarlar borki, xronologiya nuqtayi nazaridan ularni biror joyga qo‘yish imkoni yo‘q: bular chig‘atoy va usmonli adabiyotlaridan kirib kelgan asarlardir. Ularning deyarli birontasining tatar xalqi orasiga qachon kirib kelgani ma‘lum emas”* [4:22]. Materialni xronologiyaga asoslanib tuzishda duch kelinadigan yana bir muammo adabiyot tarixini davrlarga bo‘lish masalasidir. Tatar adabiyoti tarixida sharq ta‘sirida bo‘lgan adabiyot yoki mumtoz davr XIX asr oxirlariga qadar davom etgani aytilgan holda, mualliflar G‘arb adabiyoti ta‘siridagi davr, ya‘ni Yangi davrning boshlanish nuqtasi XVIII asr oxirlari etib belgilanadi. Bu ikki davrning tutashgan nuqtasini Xalfin, Fayzxonov, Marjoniy, Nosiriy va Aqmullalar ijodiga nisbat berishadi. Bu bilan mumtoz davrning tugab, yangi davrning boshlanishi, ya‘ni bir davrning tugab ikkinchi yangi davrga o‘tish jarayoni bir asrlik oraliqni keltirib chiqargan. Ushbu o‘rinda e‘tibor beriladigan ikki jihat bor. Mualliflar yangi davrning boshlanish nuqtasini belgilab olishda shaxs (ijodkor)ga bog‘lashmoqda. Bu esa ularning tatar adabiyoti tarixini tizimga solishda biografik yondashuvni ham ayrim o‘rinlarda qo‘llaganliklarini ko‘rsatadi. Ikkinchi muhim jihat, Aziz Ubaydullin va Ali Rahim taklif qilgan davrlashtirishda bir davrning tugab ikkinchi davrning boshlanishida bir asrlik “o‘tish oralig‘i”ni ham ko‘ramiz.

Ammo sovet adabiyotshunosligida davrlashtirish masalasida tugallangan va boshlangan nuqtani bir deb belgilash an‘anasiga muvofiq uzoq vaqtlar davomida tatar adabiyotshunosligida ham o‘rta asrlar davrining tugashi va Yangi zamon adabiyotining boshlanish vaqtini bir sana bilan atash an‘anasi yashadi. Ya‘ni bu XVIII asr oxiri mumtoz davrning tugab, XIX asr boshi yangi davrning boshlanishi sifatida ko‘rsatilgan. Faqatgina XX asrning oxiriga kelib, M. Gosmanov va R. Amirxonov tadqiqotlari natijasida mumtoz an‘analarning tugab, yangi davr tatar adabiyotining boshlanishi XIX asrning so‘nggi choragi deb qarala boshlandi [4:23]. Bugungi kun tatar adabiyotshunoslarining e‘tiroficha, jahon adabiyotshunosligida ham davrlarni belgilashda xuddi Aziz Ubaydullin hamda Ali Rahim tanlagan “o‘tish oralig‘i” qabul qilingan. Va bunga misol sifatida turk adabiyotshunosligini keltirib o‘tishgan. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, aytish mumkinki, tatar adabiyoti tarixini yaratishga qaratilgan ushbu dastlabki ishda har uch yondashuvga ham oz-ozdan murojaat qilingan. Albatta, yangi qo‘l urilgan ishda bir qator qiyinchiliklar kuzatiladi. Mualliflar o‘zlari ta‘kidlaganlaridek, *“biz birinchi so‘qmoqni soluvchilar sifatida o‘zimiz tutgan tamoyillar doirasida bu qiyinchilikni bundan ham muvaffaqiyatliroq hal eta olmadik. Kelajakda, adabiyot tariximiz yanada chuqurroq ishlab chiqilgach, bu masalada boshqa, qoniqarliroq yo‘llar topiladi deb umid qilamiz”* [4:24].

Mualliflar so‘zlariga qaraganda, ushbu “Tatar adabiyoti tarixi” kitobi maktab darsligi sifatida emas, balki maktab muallimlari uchun qo‘llanma sifatida tayyorlangan. Asarda uzun mulohazalar, ilmiy bahslar faktlar, taftish va tahlillar uning ilmiy monografik planda yozilgan asar ekanligini ko‘rsatadi. Mualliflarning o‘zi ham kitobning har bir qismi alohida monografiya shaklida ekanligini aytadi [4:24]. Shu bilan birga, barcha yig‘ilgan materiallarni jamlab yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darslik yozish niyatlari ham bo‘lgan. Unga qadar esa, maktab o‘qituvchilari o‘zlari bolalarga moslab ushbu kitobdan foydalanishlari mumkinligi aytiladi. Ushbu kitob uchun xrestomatiya ham nashrga tayyorlangan bo‘lib, mualliflar adabiyot tarixi kitoblarini xrestomatiyasiz o‘qitish, adabiyot ilmini quruq nazariyaga aylantirib sxolastik holatni keltirib chiqaradi deb hisoblashgan.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdirashidov, Zaynabidin (2019) *XX asr boshlarida Turkiston: ijtimoiy-siyosiy va intellektual jarayonlar*. Ankara: Sonçağ
2. Barga, Hüseyin (2015). *Yenileşme Dönemi Türk Edebiyatı'nın Idil-Ural Bölgesi Tatar Edebiyatı'na Etkisi (1860-1917)*. Doktora Tezi. Istanbul
3. Validiy. Bizning yo'l jurnali 19124-yil 4-5-sonida
4. Рәхим Г., Газиз Г. (2022a) *Татар әдәбияты тарихы. Борынғы дәвер; төз., текст. иск. һәм анл. әзерл.: Л.Ш. Гарипова, Г.А.Хөснетдинова, А.М.Ахунов, И.Г. Гомәров; кереш сүз авт. Д.Ф. Заһидуллина. («Рухи мирас: эзләнүләр һәм табышлар» сериясе, 15 нче чыгарылыш)*. Казан: ТӘҺСИ
5. Рәхим, Г., Газиз Г.(2022b) *Татар әдәбияты тарихы. Борынғы дәвер. XVII-XIX гасырлар; төз., текст. иск. һәм анл. әзерл.: Л.Ш. Гарипова, Л.Р.Надыршина, А.М.Ахунов, И.Г. Гомәров Г.А.Хөснетдинова; («Рухи мирас: эзләнүләр һәм табышлар» сериясе, 16 нче чыгарылыш)*. – Казан: ТӘҺСИ